

# **Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili P. Buryan Qoraqalpog'istonda**

2021 yil 26 mayda Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili P. Buryan boshchiligidagi Evropa Ittifoqi delegatsiyasi Nukusga keldi. Delegatsiya tarkibiga Evropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian kirdi. Delegatsiya Nukus shahar markaziy shahar kasalxonasida bo'lib, u erda perinatal salomatlikni yaxshilash loyihasi doirasida tibbiy asbob-uskunalarini topshirish marosimida qatnashdilar. Ushbu tadbir davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi neonatal intensiv terapiya bo'limlari va operatsiya xonalari uchun 300 dona jihozlarni oldi. Bularga jarrohlik asboblari, elektrokardiografiya moslamalari, ultratovushli apparatlar, doimiy ijobiy musbat havo bosimi apparatlari va boshqa muhim uskunalar kiradi. P. Buryan sog'liqni saqlash, ijtimoiy rivojlanish va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholadi.

Image not found or type unknown



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi Q.Sariev va Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Piter Burian o'rtasida uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinnbosari R.Zarikeev va Elchi, Evropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi Delegatsiyasi rahbari Sharlotta Adrian ishtirok etishdi.

Suhbat avvalida rais Buryanni Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili sifatidagi missiyasini muvaffaqiyatli yakunlagani bilan tabrikldi va uning O'zbekiston va Evropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasini ta'kidladi.

Image not found or type unknown



Mehmonlarga Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari to'g'risida ma'lumot berildi.

Aholining, ayniqsa, chekka hududlar aholisining turmush darajasi va sifatini oshirishga alohida e'tibor berilayotgani, Orol fojiasining salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha jiddiy ishlar olib borilayotgani ta'kidlandi. Xususan, mintaqada sog'liqni saqlash tizimini

yanada takomillashtirish, sanitariya-epidemiologiya holatini barqarorlashtirish, Orol dengizi o'simliklari va hayvonot dunyosini asrashga keng jamoatchilikni jalb etishga e'tibor qaratilmoqda.

Q.Sariev Qoraqalpog'iston rahbariyati Orolbo'yi mintaqasiga ko'mak ko'rsatishda xalqaro sheriklarning faolligi tobora ortib borayotganini katta mammuniyat bilan qayd etishini ta'kidladi.